

KASBIY STANDART

Chorvachilik

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Chorvador", "Hayvonlarni va parrandalarni suniy urchitish bo'yicha operator", "Qorako'lchi" va "Chorvachilik komplekslari va mexanizatsiyalashtirilgan fermalar operatori" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

bonitirovka – chorva mollari holatini baholash, podaning xo'jalik qiymatini aniqlash;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo’llay olish;

ko’nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko’nikma va kompetensiyalar majmuasi bo’lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko’nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo’lmagan mehnat harakatlari va mas’uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o’zaro bog’liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o’zaro ta’siri jarayoni;

norasmiy ta’lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta’lim bo’lib, shaxs yoki ta’lim xizmatlarini ko’rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta’limni to’ldiruvchi yoki uning alternativasi bo’lishi mumkin;

rasmiy ta’lim – davlat ta’lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta’lim jarayoni.

osemenator – qishloq xo’jaligi hayvonlarini sun’iy urug’lantirish bo’yicha mutaxassis.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqish uchun asos bo’lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar:

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi “O’zbekiston Respublikasida milliy malakalar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-345-son qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo’llaniladi:

MMR – Milliy malakalar ramkasi;

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Chorvachilik	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Qishloq xo'jalik hayvonlari, mo'ynali hayvonlar, parrandalarni ko'paytirish, ulardan va mahsulot olish, ularni saqlash, parvarishlash, oziqlantirish va takror ko'paytirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	A Seksiyasi 01.4 Chorvachilik 01.41, 01.41.0 Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko'paytirish 01.42, 01.42.0 Yirik shoxli qoramollarning boshqa zotlarini va buyvollarni, ko'paytirish 01.43 Otlar va boshqa tuyoqli zotlarni ko'paytirish 01.43.1 Otlarni ko'paytirish 01.43.2 Eshaklar, xachirlar va boshqa tuyoqli zotlarni ko'paytirish 01.44, 01.44.0 Tuyalar va tuyasimonlarni ko'paytirish 01.45 Qo'ylar va echkilarni ko'paytirish 01.45.1 Qorako'l zotli qo'ylarni ko'paytirish 01.45.2 Qorako'l zotlilardan tashqari qo'ylarni ko'paytirish 01.45.3 Echkilarni ko'paytirish 01.46, 01.46.0 Cho'chqalar va cho'chqa bolalarini ko'paytirish 01.47, 01.47.0 Parrandachilik	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Qoramol, qo'y, echki, ot, tuyuk, parrandalar va boshqa ciorva hayvonlari hamda ulardan olinadigan sut, go'sht, jun, teri, tuxum va boshqa mahsulotlarni yetishtirish, ko'paytirish va yetkazish, shuningdek kasbiy faoliyatda ko'p mehnat va bilim, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va bozor talablariga moslashish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		61212003 Chorvador	3
		61212004 Hayvonlarni va parrandalarni suniy urchitish bo'yicha operator	3
		61212006 Qorako'lchi	3
		61212 Chorvachilik komplekslari va mexanizatsiyalashtirilgan fermalar operatori	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	61212003 Chorvador	A1.3	Qishloq xo'jalik hayvonlari, mo'ynali hayvonlar va parrandalarni parvarishlash, oziqlantirish	A1.01.3	Hayvon va parrandalarni parvarishlash
				A1.02.3	Hayvon va parrandalarni oziqlantirish
				A1.03.3	Hayvon va parrandalar bosh hisobini yuritish
		A2.3	Hayvonlar va parrandalarni takror ko'paytirishda urchitish	A2.01.3	Hayvon va parrandalarni urchitish, bosh sonini ko'paytirish
				A2.02.3	Hayvon va parrandalar naslini yaxshilash
		A3.3	Hayvon va parrandalar bonitirovkasini yuritish, o'sish va rivojlanishiga qarab saralash, takror ko'paytirishga tayyorlash	A3.01.3	Hayvonlar o'sish va rivojlanishi hisobini yuritish, mahsuldorligini oshirish
				A3.02.3	Hayvon va parrandalarni takror ko'paytirishga mos saralash
2	61212004 Hayvonlarni va parrandalarni sun'iy urchitish bo'yicha operator	B1.3	Hayvonlarni sun'iy urug'lantirish va nazorat qilish	B1.01.3	Kuyikishga kelgan hayvonlarni aniqlash va nazorat qilish
				B1.02.3	Hayvonlarda sun'iy urug'lantirishni amalga oshirish
				B1.03.3	Urug'langan hayvonlarni bug'ozligini aniqlash
3	61212006 Qorako'lchi	D1.3	Naslchilik ishini tashkil etish, qo'chqorlarni avlod sifati bo'yicha baholash va aprobatziya o'tkazish, naslchilik xujjatlarini yuritish	D1.01.3	Qo'zilatish mavsumini tashkil etish
				D1.02.3	Qo'ylarni tanlash va juftlash
				D1.03.3	Qo'chqorlarni avlod sifati bo'yicha baholash
				D1.04.3	Qo'zilarini baholash
				D1.05.3	Qo'zilarini bonitirovkalash
				D1.06.3	Jun qirqim mavsumini tashkil etish
				D1.07.3	Qo'ylarda sun'iy urug'lantirish mavsumini tashkil etish
				D1.08.3	Otarlar tashkillashtirish
				D1.09.3	Qishlov mavsumini tashkil etish

4	61212 Chorvachilik komplekslari va mexanizatsiyalashtirilgan fermalar operatori	E1.3	Chorvachilik ferma va komplekslarida texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishda qo'llanuvchi mashina va jihozlaridan foydalanish	E1.01.3	Chorvachilik fermalari va komplekslari, ularning turlari, hayvonlarning tarkibi va ularni saqlash texnologiyalarini aniqlash
				E1.02.3	Hayvonlar va parrandalarni saqlash binolari va ularning texnologik jihozlarini aniqlash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Chorvador	
Mashg'ulot nomining kodi:	61212	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 3 oylik amaliy stajirovkadan o'tganligi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	2	Podachi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3-Qishloq xo'jalik hayvonlari, mo'ynali hayvonlar va parrandalarni parvarishlash, oziqlantirish	A1.01.3-Hayvon va parrandalarni parvarishlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlarni parvarishlash
		2. Hayvon va parrandalar saqlanayotgan xonalarda zogigiyena talablarini ta'minlash
		3. Hayvon va parrandalar kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish
		4. Chiqindilarni tozalashning mexanizatsiyalashgan tizimlarini nazorat qilish
		5. Chorvachilikda foydalaniladigan anjomlar va to'shamalarni almashtirish
		Ko'nikmalar:
		Sanitar-gigiyena talablariga muvofiq hayvonlarni parvarishlash
		Zoogigiyena talablariga qat'iy amal qilish va mikroiklimni boshqarish
		Hayvon va parrandalar kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillarni oldindan aniqlash
		Chiqindilarni tozalashning mexanizatsiyalashgan tizimlaridan foydalanish
		Hayvon to'shamalarini almashtirish
		Bilimlar:
		Hayvonlarni parvarishlashning tartibi
		Hayvon va parrandalar saqlanayotgan xonalarga

		qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablari
		Hayvon va parrandalar saqlanadigan xonalarga qo'yiladigan zoogigiyena talablari
		Chiqindilarni tozalashning mexanizatsiyalashgan tizimlari
		Chorvachilikda foydalaniladigan anjom va uskunalar turlari va ulardan foydalanish qoidalari
		Hayvonlar ustini tozalash va cho'miltirish tartibi
		Hayvonlar bilan bevosita ishlashda texnika xavfsizligi
		Mehnatni muhofaza qilish qoidalari
	A1.02.3-Hayvon va parrandalarni oziqlantirish	Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlar va parrandalarni oziqlantirish ratsionlarini tuzish, ozuqalar hisobini yuritish
		2. To'g'ri oziqlantirish va ozuqalar sifatini baholash
		3. Hayvonlar ozuqalarini tayyorlash va qayta ishlash
		Ko'nikmalar:
		Hayvonlar va parrandalar ozuqalarini tayyorlash, sifati va to'yimligini aniqlash
		Har bir hayvon va parranda guruhlarini oziqlantirishda individual yondashish, ularning yoshiga, jinsiga va mahsuldorligidan kelib chiqadigan texnologik talablariga qarab oziqlantirish ratsionlarini tuzish
		Hayvonlarni o'z vaqtida sifatli ozuqa bilan oziqlantirish
		Hayvonlar ozuqalarini tayyorlash va qayta ishlashga qo'llaniladigan texnik vositalarning texnologik parametrlarini sozlash
		Bilimlar:
		Hayvonlar va parrandalarni oziqlantirish tartibi, ozuqalar to'yimligi va sifat miqdori
		Ozuqalarni tayyorlash va qayta ishlash texnologiyasi
		Zararli va zaharli ozuqalar turlari
		Mehnatni muhofaza qilish qoidalari va sanitariya normalari
	A1.03.3-Hayvon va parrandalar bosh hisobini yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlarni identifikatsiyalash, bosh hisobini yuritish
		2. Yangi tug'ilgan va podaga qo'shilgan hayvon va parrandalarni hisobga olish
		3. Hayvon va parrandalarni guruhlariga taqsimlash
		4. Hayvonlarni joydan joyga ko'chirish
		5. Hayvonlarni yaylovlarda boqish
		Ko'nikmalar:
		Hayvonlarni identifikatsiyalashda qo'llaniladigan tamg'alash, sirg'alash, chip o'rnatish, hayvon va parrandalar bosh sonini hisoblash
		Yangi tug'ilgan va podaga qo'shilgan hayvonlarni ro'yxatga olish, jurnallarga qayd etish
		Parrandalar hisobini yuritish, hayvon va parrandalar kirim va chiqimini hisobga olish, chiqim sabablarini tahlil qilish
		Hayvon va parrandalar texnologik guruhlarini

		shakllantirish, hayvon va parrandalarni guruhlarga taqsimlash
		Hayvonlarni joydan joyga ko'chirish, tashish, xaydab borish, yayratish va jismoniy harakat qildirish
		Hayvonlarni yaylovga chiqarishga tayyorlash, xaydab borishda trassa va yo'llarni o'rganish, yo'lda ularni asrash, zarur extiyot choralarini ko'rish, hayvonlarni yaylovda boqishning veterinariya-sanitariya talablariga amal qilish
		Bilimlar:
		Hayvonlarni identifikatsiya va fiksatsiyasi qilish tartibi
		Hayvonlar va parrandalar hisobini yuritish usullari
		Hayvonlar podasini shakllantirish va poda harakatini boshqarish qoidalari
		Hayvonlar saqlanadigan bino, inshootlarning zoogigiyenik hamda texnologik parametrlari
		Hayvonlar etologiyasi, organizmning muhitga moslashish xususiyatlari va texnologik stresslardan himoyalash usullari
		Hayvonlarni yaylovlarda boqish tartibi
		Mehnatni muhofaza qilish qoidalari va sanitariya normalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Hayvonlarning sog'ligiga va ozuqalarning qonuniy talablar va standartlarga mosligi uchun javobgarlik
		2. Hayvonlarni parvarishlash, g'amxo'rlik qilish, zararli kimyoviy moddalardan himoya qilish va ularga zarur favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatishda mas'uliyat
		3. Hayvonlarni parvarishlash va oziqlantirish hamda asbob-uskunalaridan foydalanishda mustaqil qarorlar qabul qilish
A2.3-Hayvonlar va parrandalarni takror ko'paytirishda urchitish	A2.01.3-Hayvon va parrandalarni urchitish, bosh sonini ko'paytirish	Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlarni takror ko'paytirish va bosh hisobini yuritish
		2. Hayvonlarni urchitish va sun'iy urug'lantirish
		3. Hayvonlarni tug'dirishda ishtirok etish
		Ko'nikmalar:
		Hayvon va parrandalarni urchitish va takror ko'paytirish
		Akusherlik va ginekologik inkubatsiya jarayonlarini amalga oshirish
		Hayvonlarni urchitishning samarali usullaridan foydalanish, sun'iy urug'lantirish usullarini qo'llash, juftlash
		Kuyukkan urg'ochi hayvonlarni aniqlash, naslli buqalardan urug' olish va urug'ni muzlatish, saqlash va qo'llash
		Hayvonlarni tug'dirish, noto'g'ri kelgan homilani to'g'irlash, homilani qabul qilib olish, uni birlamchi parvarishlash va emizdirish
		Yangi yorib chiqqan parranda jo'jalarini parvarishlash,

		jinsiga va texnologik parametrlarga mos ravishda saralash
		Bilimlar:
		Hayvonlarni takror ko'paytirish tartib qoidalari va texnologik jarayonlari
		Embrion transplantatsiyasi tartibi, jinsiy sikl va davriyligi, hayvonlarni urchitish vositalari
		Hayvonlarni tabiiy va sun'iy urchitish usullari, bo'g'oz hayvonlarni saqlash va parvarishlash tartibi
		Hayvon va parrandalar anatomiyasi, morfologiyasi, fiziologiyasi
		Veterinariya akusherligi, ginekologiyasi, sanitariyasi va zoogigiyena asoslari
	A2.02.3-Hayvon va parrandalar naslini yaxshilash	Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlarni tanlash va saralash
		2. Hayvonlarni chatishtirish
		3. Hayvonlarni bonitirovkadan o'tkazish
		Ko'nikmalar:
		Seleksion usullarga muvofiq hayvonlarni tanlash va saralash
		Naslli va yuqori mahsuldor hayvon va parrandalarni ajratish, parvarishlash, guruhlariga bo'lish
		Otalik va onalik individuumlarni tanlash
		Hayvonlarni juftlash va chatishtirish
		Nasldor hayvonlarni sog'ligiga xavfsiz sharoitda parvarishlash, qimmatli genofondini asrash
		Hayvonlarni bonitirovka qilish, tarozidan o'tkazish, o'sish-rivojlanish dinamikasini aniqlash
		Hayvonlar eksterer va intererini baholash, mahsuldorligi aniqlash, xarakterini, temperamenti, pushdorligi va salomatligi umumiy holatini baholash
		Bilimlar:
		Hayvonlar genetikasi asoslari
		Hayvonlar pushtorligini baholash va aniqlash usullari
		Hayvonlarni chatishtirishning zamonaviy usullari
		Hayvonlar bonitirovkasi xususiyatlari
		Hayvon va parrandalarning normal tana parametrlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Urchitish jarayonida hayvon va parranda sog'lig'iga zarar yetkazmaslik uchun javobgarlik
		2. Urug'lantirish natijalarini hisobga olish va rasmiylashtirish uchun mas'uliyat
A3.3-Hayvon va parrandalar bonitirovkasini yuritish, o'sish va rivojlanishiga qarab saralash, takror ko'paytirishga	A3.01.3-Hayvonlar o'sish va rivojlanishi hisobini yuritish, mahsuldorligini oshrish	Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlar o'sishi va rivojlanishi kuzatish
		2. Hayvonlar hisobini yuritish
		3. Hayvonlar mahsuldorligini oshrish
		Ko'nikmalar:
		Mahsulot sifatini va miqdoriy ko'rsatkichlar o'lchovlarini amalga oshirish va nazorat qilish
		Hayvon va parrandalarni urchitish natijalarini kuzatish va

tayyorlash		tahlil qilish Hayvon va parrandalarning mahsuldor guruhlarini tashkil etish Bilimlar: Qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarini urchitish va takror ko'paytirish usullari va texnologiyasi Chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarini sifat darajasi va miqdorini aniqlash usullari Chorvachilikda va parrandachilikda mahsulot hisobini yuritish tartibi
	A3.02.3-Hayvon va parrandalarni takror ko'paytirishga mos saralash	Mehnat harakatlari: 1. Hayvon va parrandalarni texnologik guruhlarga o'tkazish 2. Hayvon va parrandalarning mahsuldor guruhlarini tashkillashtirish 3. Hayvon va parrandalar saqlanadigan joylarni tayyorlash 4. Hayvon va parrandalar texnologik guruhlariga ozuqa ratsionini tuzish Ko'nikmalar: Hayvon va parrandalar mahsuldorligini oshirish, mahsuldorlikning zarur parametrlarini shakllantirish Go'shtdor qoramolchilik, sutdor qoramolchilik, go'sht, jun, qorako'l qo'ychiligi, sut, jun echkiligi, mo'nachilik, tuxum va go'sht parrandachiligi, naslchilik ishlarida ishtirok etish Hayvon va parrandalar saqlanadigan joylari texnologik parametrlarini sozlash, ishlab chiqarishning texnologik xaritalarini tuzish Naslga mos juftlash va rejalashtirish Bilimlar: Hayvonlar va parrandalarning biologik va reproduktiv xususiyatlari Genetika, seleksiya va naslchilik asoslari Naslni yaxshilash usullari Naslchilik hujjatlarini yuritish tartibi va standartlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Hayvon va parrandalarni tanlashda mustaqil qaror qabul qilish 2. Nasl sifati va sog'lig'i uchun mas'uliyat
Texnik va/yoki texnologik talab		Elektrotexnik asboblari, o'lchov va diagnostik uskunalari hamda isitish tizimlari uskunalaridan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Hayvonlarni va parrandalarni sun'iy urchitish bo'yicha operator	
Mashg'ulot nomining kodi:	61212	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 3 oylik amaliy stajirovkadan o'tganligi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	3	Hayvonlarda sun'iy uruglantirish xizmatini ko'rsatish bo'yicha texnik (osemenator)
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3-Hayvonlarni sun'iy urug'lantirish va nazorat qilish	B1.01.3-Kuyikishga kelgan hayvonlarni aniqlash va nazorat qilish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Hayvonlar kuyikishini hayvonlar yordamida aniqlash
		2. Hayvonlar kuyikishini klinik belgilar yordamida aniqlash
		3. Hayvonlar kuyikishini nazorat qilib borish
		4. Kuyikishga kelgan hayvonlarni alohida joylarga o'tkazish
		5. Yig'ilgan ma'lumotlarni hujjatlashtirish va hisobot yuritish
		Ko'nikmalar:
		Hayvonlarda kuyikish belgilarini aniqlash uchun klinik tekshirish
		Epidemiologik ma'lumotlarni tahlil qilish
		Hayvonlarda diagnostikadan o'ztkazish davomida bioxavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Hayvonlar kuyikishining asosiy belgilari
		Veterinariya diagnostikasi usullari

		Epizootologiya va sanitariya-epidemiologiya qoidalari
	B1.02.3- Hayvonlarda suniy uruglantirishni amalga oshirish	Mehnat harakatlari: 1. Hayvonlarda suniy uruglantirishni amalga oshirish 2. Episervikal usulda sun'iy urug'lantirish 3. Vizo-servikal usulda sun'iy urug'lantirish 4. Mano-servikal urug'lantirish 5. Rekto-servikal usulda urug'lantirish Ko'nikmalar: Sun'iy urug'lantirishda ishlatiladigan asbob-uskunalarini ishga tayyorlash Ekak hayvonlardan urug' olish va baholash Urug'ning harakatchanligi va sifatini mikroskopda tekshirish Natijalarni elektron va qog'oz shaklda qayd etish Bilimlar: Hayvonlarda reproduktiv tizim anatomiyasi va fiziologiyasi Gigiyena va sanitariya talablari, infeksiyadan saqlanish qoidalari Hayvonlarni tabiiy va sun'iy urug'lantirish usullari Urug' olish, sifatini aniqlash va saqlash tartibi Homiladorlikni erta aniqlash usullari va dinamikasi
	B1.03.03- Uruglangan hayvonlarni bugozligini aniqlash	Mehnat harakatlari: 1. Osemenator texnik kalendarini yuritish 2. Osemenator texnik kalendarini va sun'iy urug'lantirishda ishlatiladigan asbob-uskunalarining holati va turlarini muntazam yangilab borish 3. Hayvonlarda bo'g'ozlik va bepustlikni aniqlash va tug'ish paytida akusherlik yordamini ko'rsatish 4. Ma'lumotlarni tahlil qilish hisobotlar tayyorlash Ko'nikmalar: Osemenator texnik kalendarini yuritish uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish Hayvonlarda bo'g'ozlik belgilari bo'yicha diagnostik tahlillar o'tkazish Tug'ish paytida akusherlik yordamini ko'rsatish Sut bezlarining kasalliklari, akusher-ginekologik kasalliklarni aniqlash Bilimlar: Hayvonlar fiziologiyasi va genetikasi asoslari Hayvonlarda bo'g'ozlik va bepustlikni aniqlash usullari Osemenator texnik xizmat ko'rsatish asbob-uskunalarini ta'mirlash va saqlash bo'yicha me'yoriy talablar Osemenator texnik xizmat ko'rsatish kalendarini hisobotlarini taqdim etish tartibi

	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. Urug’ning sifatini tekshirish, saqlash va ishlatishda veterinariya normalariga rioya qilinishida javobgarlik
		2. Urug’lantirish uchun hayvonlarni to’g’ri tanlash va ovulyatsiya davrini aniqlash uchun mas’uliyat
Texnik va/yoki texnologik talab		Elektrotexnik asboblari, o’lchov va diagnostik uskunalari hamda isitish tizimlari uskunalaridan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Qorako'lchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	61212	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 3 oylik amaliy stajirovkadan o'tganligi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	2	Cho'pon
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.3-Naslchilik ishini tashkil etish, qo'chqorlarni avlod sifati bo'yicha baholash va aprobatsiya o'tkazish, naslchilik xujjatlarini yuritish	D1.01.3-Qo'zilar baholash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Qo'zilar teri sifati va rivojlanishiga ko'ra bonitirovka jarayonini o'tkazish
		2. Qo'zilar teri bonitirovka qilishda sifat ko'rsatkichlarining umumiy magimun tipini aniqlash
		Ko'nikmalar:
		Qo'zilar terisining gul shakllarini aniqlash
		Qo'zilar terisining tovar xususiyatlarini aniqlash
		Qo'zilar sifat ko'rsatkichlarining umumiy magimun tiplarini farqlash
		Bilimlar:
		Qo'zilar terisidagi gul shakllarini morfologik tuzilishi xususiyatlari
		Qo'zilar terisini ipaksimonlik, yaltiroqlik, gul o'lchami, eni, rangi va rangbarangligi xususiyatlari
		Qo'zilar biologik xususiyatlari
	D1.02.3-Qo'ylarni tanlash va juftlash	Mehnat harakatlari:
		1. Qo'ylarning kelib chiqishi, sinfi, barra tipi, rangbarangligi, tuslari, gul o'lchami, rivojlanishi bo'yicha tanlash
		2. Qo'ylarning fiziologik va genetik ko'rsatkichlarni baholash
		3. Juftlash jarayonini rejalashtirish va tashkil qilish
		Ko'nikmalar:

		Genetik tahlil va seleksiya usullaridan samarali foydalanish
		Qo'ylarning bonitirovka belgilarini o'qish
		Qo'ylarning sog'lig'ini va reproduktiv faoliyatini baholash
		Urchitish usullaridan foydalanish
		Qo'ylarni barra tiplari va rangbarangliklariga ko'ra ajratish
		Bilimlar:
		Zootexniya, genetika va seleksiya asoslari
		Qo'y zotlari, ularning xususiyatlari va mahsuldorlik ko'rsatkichlari
		Veterinariya va chorvachilik sanitariya qoidalari
		Bonitirovka qilish tartibi
		Juftlash texnologiyasi
	D1.03.3- Qo'chqorlarni avlod sifati bo'yicha baholash	Mehnat harakatlari:
		1. Qo'chqorlarga avlod sifati bo'yicha tekshirish uchun sovliqlarni biriktirish
		2. Sun'iy urug'lantirish punktida avlod sifati bo'yicha tekshirilayotgan qo'chqorlarga biriktirilgan sovliqlarni qayd qilish
		3. Qo'zilatish mavsumida biriktirilgan qo'chqorlardan olingan avlod sifatini baholash
		Ko'nikmalar:
		Qo'chqorlarni avlod sifati bo'yicha baholash
		Qo'chqor zotlarini aniqlash
		Qo'chqorlarni avlod sifati bo'yicha baholash hujjatlarini yuritish
		Bilimlar:
		Qo'chqorlarning urug' sifatini oshirish usullari
		Sovliqlarni urug'lantirish texnologiyasi
		Qo'chqorlarni avlod sifati bo'yicha baholash usullari
	D1.04.3-Naslli qo'chqorlarni aprobatsiyadan o'tkazish	Mehnat harakatlari:
		1. Qo'chqorlarni chorvadorlar klassifitsiyasi bo'yicha baholash
		2. Qo'chqorlarni tishiga ko'ra baholash va suruvdan chiqarish
		Ko'nikmalar:
		Qo'chqorlarni chorvadorlar klassifitsiyasi bo'yicha baholash usullaridan foydalanish
		Favqulodda vaziyatlarda qo'chqorlarni suruvdan chiqarish
		Bilimlar:
		Qo'chqorlarni tasniflash mezonlari
	D1.05.3-Qo'zilatish mavsumini tashkil	Qo'chqorlarning yoshiga ko'ra tish tizimi o'zgarishini aniqlash qoidalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Qo'zilatish rejasini ishlab chiqish

	etish	2. Bonitirovka jarayonini tashkil qilish
		3. Qo'zilatish jarayoniga zarur bo'ladigan jihoz va uskunalarni ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Bonitirovka usullaridan foydalanish
		Bonitirovka o'tkazish talablariga rioya qilish
		Qo'zilarining teri xususiyatlarini baholash
		Bilimlar:
		Terining gul va tovar xususiyatlari
		Qo'ylarning normal biologik parametrlari
		Bonitirovka o'tkazish talablari
	D1.06.3-Jun qirqim mavsumini o'tkazish	Mehnat harakatlari:
		1. Qirqish punktida qo'ylar junini qirqish
		2. Jun qirqim punktini zarur jihoz va uskunalar bilan ta'minlash
		3. Junlarni toylash, xillash jarayonlarini tashkil qilish
		Ko'nikmalar:
		Qirqim punkti texnologik jarayonini tashkil qilish
		Qo'ylar junini qirqish rejasini tuzish
		Qirqish jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Juning qirqish davriga muvofiq parametrlari
		Jun yapog'i (yaxshi qirqib olingan jun) tuzilishi
	D1.07.3-Qo'ylarni sun'iy urug'lantirish mavsumini o'tkazish	Jun andozasi xususiyatlari
		Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalarini
		Mehnat harakatlari:
		1. Qo'ylarni sun'iy urug'lantirish punktini tashkil qilish
		2. Qo'chqorlarni mavsum oldi tayyorlash
		3. Punktga zarur jihoz va uskunalar ta'minotini nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Punktga zarur uskuna va jihozlar ro'yxatini shakllantirish
		Qo'chqorlarning urug' sifatini baholash
		Punktida yuritiladigan hujjatlar to'ldirilishini nazorat qilish
		Bilimlar:
	D1.08.3-Otarlar tashkillashtirish	Urug' sifatini aniqlash
		Urug'lantirish texnikasi va texnologiyasi
		Hujjatlarni yuritish tartibi
		Mehnat harakatlari:
		1. Qo'y yoshi, jinsi, rangi, barra tipi, sinfiga ko'ra otarlar tashkil qilish
		Ko'nikmalar:
		Qo'zilar xavfsiz tarzda onasidan ajratish
		Qo'y va qo'zilar barra tipi va sinfiga ko'ra saralash
		Bilimlar:

		Qo'y va qo'zilarning barra tipini aniqlash usullari
		Qo'y va qo'zilar sinflari
		Qo'y va qo'zilarning ranglari xususiyatlari
	D1.09.3-Qishlov mavsumini o'tkazish	Mehnat harakatlari:
		1. Qishlov mavsumini o'tkazish uchun ozuqa ta'minoti va qo'yxonalar holatini o'rganish
		Ko'nikmalar:
		Qishlov mavsumida bir bosh qo'y uchun zarur ozuqa miqdorini aniqlash
		Qo'yxonada mikroiklim nazoratini olib borish
		Bilimlar:
		Ratsion asosida oziqlanirish normalari
		Mikroiqlim ko'rsatkichlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Naslchilik ishlarini tashkil qilish bo'yicha usullar va yondashuvlarni tanlashda mustaqil qaror qabul qilish
		2. Qo'chqorlarning genetik salohiyatini baholash jarayonlarini belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirishda mas'uliyat
Texnik va/yoki texnologik talab		Elektrotexnik asboblari, o'lchov va diagnostik uskunalari hamda isitish tizimlari uskunalaridan samarali foydalanish

Kasbning nomi:	Chorvachilik komplekslari va mexanizatsiyalashtirilgan fermalar operatori	
Mashg'ulot nomining kodi:	61212	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	4	Avtomatlashtirish obyektlari texnik texnologiyasi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
E1.3-Chorvachilik ferma va komplekslarida texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishda qo'llanuvchi mashina jihozlaridan foydalanish	E1.01.3-Chorvachilik fermalari va komplekslari, ularning turlari, hayvonlarning tarkibi va ularni saqlash texnologiyalari aniqlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Fermada qo'llaniladigan mashinalar va avtomatlashtirilgan jihozlar texnik holatini baholash
		2. Oziqlantirish, saqlash, sog'ish va hayvon chiqindilarini tozalash jarayonlariga mo'ljallangan texnik vositalarni ishga tayyorlash
		3. Chorvachilik fermalari va komplekslarida avtomatlashtirilgan va mexanik jihozlarni ishga tushirish, nazorat qilish va sozlash
		Ko'nikmalar:
		Zarur mashina va qurilmalarni tanlash
		Xo'jalik kompleks va ferma sharoiti talablariga mos ravishda ularning ish holatini baholash
		Mashinalarda uchraydigan nosozlik va kamchiliklarni aniqlash
		Mashinalarda uchraydigan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf qilish va oldini olish
		Bilimlar:
		Mashinalarning vazifalari, turi, sinfi, markalari
		Elektronika, avtomatika, sensor tizimlari va ularning ishlash tamoyillari

		Avtomatlashtirilgan sog'ish tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish mexanizmlari
		Chorvachilikda mexanizatsiyalash asoslari
		Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi qoidalari
	E2.02.3- Hayvonlarni va parrandalarni saqlash binolari va ularning texnologik jihozlari aniqlash	Mehnat harakatlari:
		1. Hayvon va parranda turiga mos saqlash binolarini aniqlash va ularni baholash
		2. Binolarning ventilyatsiya, isitish, yoritish va oziqlantirish tizimlaridan foydalanish
		3. Jihozlar joylashuvi va funksiyalarini loyiha talablari hamda hayvon turiga ko'ra nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Turli hayvon va parranda turlariga mos saqlash binolarining konstruktiv xususiyatlarini tahlil qilish
		Binolardagi ishchi muhit parametrlarini (temperatura, namlik, havo almashinuvi) baholash
		Hayvonlarni saqlash binolari va texnologik jihozlardan foydalanishda uchraydigan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf qilish
		Zoogigiyena va biobexatarlik talablariga muvofiq jihozlashni o'rnatish
		Bilimlar:
		Hayvon va parrandalar saqlanadigan binolarning loyiha talablari va konstruksiya xususiyatlari
		Parrandalarni saqlash binolari texnologik jihozlarining vazifalari, turi va sinflari
		Jihozlarning turlari, ularning quvvati, ishlash rejimi va xizmat ko'rsatish talablari
		Texnika xavfsizligi, elektr jihozlari bilan ishlash va mehnatni muhofaza qilish qoidalari
		Havo ifloslanishi, chiqindi oqimi va uni boshqarish usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Hayvon va parranda turlariga mos saqlash binolari va jihozlarining to'g'ri tanlanishi va baholanishi uchun to'liq javobgarlik
		2. Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va sanitariya talablarini baholashda mustaqillik
		3. Texnologik jihozlarning texnik holati va ulardan xavfsiz foydalanishda javobgarlik
Texnik va/yoki texnologik talab		Elektrotexnik asboblari, o'lchov va diagnostik uskunalari hamda isitish tizimlari uskunalaridan samarali foydalanish

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

№	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Qishloq xo'jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi	Suvanqulov Shohhusan Muxammad o'g'li
2	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O'IB prorektori	A. Elmuradov
3	Samarqand veterinariya meditsinasi texnikumi direktori	S.R. Bazarov
4	Samarqand veterinariya meditsinasi texnikumi ICHTBDO'	A.G'. Xayitov
5	Samarqand viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari	O.A. Baqoyev
6	"Chorva sut servis" MCHJ rahbari	A. G'ulomov